



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MEHNAT
TUSHUNCHASINI VA MEHNATGA MUHABBAT TUYG'USINI TO'G'RI
SHAKILLANTIRISHNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Qo'chqorova Charos Furqat qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi
+998997640496

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarnig onida mehnatga muhabbat tuyg'usini shakillantirish hamda o'quvchilarda mehnatga bo'lgan salbiy fikrarinijobiy fikrlarga almashtirish shu bilan bir qatorda o'quvchilarda mehnatning javobi har doim mukofot bilan tugashi haqidagi ijobjiy fikrlarni shakillantirishni tashkil etish metodikasi haqida metod va usullar yoritiladi.

Kalit so'zlar: kichik sinf o'quvchilari, mehnat, metod, usul, malaka, integratsiya, mukofot.

O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi va qadimdan band bo'lgan mashg'ulotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak o'zbek xalqi bugun yoki kecha dunyo sahnasida namoyon bo'lgan millat emasdir. Xalqimiz buyuk tarixi va matonati, sabrliligi eng muhim mehnatsevarligi bilan bir qator yetakchi davlatlarga o'rnak bo'la olganligini bir qancha tarixga oid kitoblardan ko'rishimiz mumkin. Biroq vaqtlar o'tib borgani sari insoniyatning ongida va ma'naviyatida mehnatga nisbatan fikrashi birmuncha o'zgarib borayotgani hamda insonlar mehnatdan o'zlarini olib qochayotgani barchamizga qorong'u emasdir. Buning yaxshi taraflari ham yo'q emas masalan: mehnat bozorida mehnatga talabning sustlashishiga zamonaviy texnikalarning va sun'iy intelektning glaballashuvi yoki bo'lmasam internet tarmog'ining ommalashganini sabab qilib ko'rsatadigan bo'lsak, bu sabablar orqali mehnatga talabning kamayishi arzirlidir, biroq mehnat qilmagan yosh avlodda shukur



hissi, qanoat tuyg'usi va qadrsizlash odat tusiga kirib boradi. Buning natijasida esa bir muncha yo'qotishlar va har bir sohada tormozlanish (ya'ni qotib qolish) yuzaga keladi. Vaziyat shunday bo'lar ekan o'sib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va ongida mehnatga nisbatan to'g'ri fikr uyg'otish biz pedagoglarning , ayniqsa biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifamiz hisoblanadi deb o'ylayman. Buning yagona sababi shundan iboratki, maktabga ilk qadamini qo'ygan yetti yoshli bola eng birinchi navbatda o'qituvchining fikriga qo'shiladi va maqullaydi.Bundan ko'rinish turibdiki boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir fanida va har bir darsidagi mashg'ulotlar bo'ladimi masala yoki misollar bo'ladimi hamma-hammasini mehnat bilan integratsiyalash va mehnatning asl mohiyatini hamda tub ma'nosini tushuntirib borish zarur hisoblanadi.Biz hozir quyida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'tiladigan bir qancha fanlarda va dam olish daqiqalarida mehnat tushunchasini ijobiy tushuntirish, tahlil qilish va mehnatga to'g'ri baho berishni ko'rib chiqamiz:

Birinchi fanimiz bu asosiy mazmuni mehnatdan iborat bo'lган “**TEXNALOGIYA**” fani .Fanning tub mohiyati ham mehnatdam iborat bo'lsada biz bu bilan qanoatlanmasligimiz shart. Texnalogiya darslarida o'quvchilarga bergen topshiriqlarimizni eng birinchi navbatda o'zimiz ham bajarishimiz bu o'quvchining psixalogiyasiga uda katta ta'sir o'tkazadigan omillardan biridir. Bu yo'l orqali o'quvchilar mehnatni doim bajarish kerakligini, mehnat qilishni yoshta ahamiyati yo'qligini hamda mehnat yillar o'tgani sari zerikarli bo'lmasligini ko'rsatib beramiz.Texnalogiya darslarida mavzuni boshlashdan oldin dunyodagi mashhur insonlarni ya'ni birin bir xalqarpo korxona raxbari, taniqli brend ostida faoliyat olib borayotgan biznesmenlar, kitoblari kitob do'konlarida eng talabchan bo'lgan yozuvchilar, she'rlari xalqning yuragidan joy egallagan shoirlar,vatanimizni himoya qilish maqsadida shaxid ketgan o'g'lonlar,tunu-kun xalq xizmatidan nafaqaga chiqgan nafaqaxo'rlarning hayot tarzidan parchalar ko'rsatish ham o'quvchilarning ongida qilingan mehnatning rag'batsiz qolmasligi haqidagi fikrni uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Mehnat tushunchasini “**MATEMATIKA**” fani bilan integratsiya qiladigan bo'lsak matematika fanida bajariladigan misol va masalalar ishslash davomida ham



mehnatga urg'u berish orqali o'quvchilar ongiga ijobjiy ta'sir o'tkazsa bo'ladi. Masalan: masalalar ishlaganimizda masala yechimini chiqarishning bir nechta usullari bo'ladi. Biz o'quvchilar bilan har bir usulni alohida masalaning yechimini topishlari va har birining javobini tekshirish usulida tekshirib ko'rishlari zarur. Bu metod orqali o'quvchilar mehnat qilishadi va qilgan amaliyoti sababli har bir bajargan ishiga ishonchi komil va hotirjam bo'lishadi. Masalalarnih har bir yechimini alohida ko'rish sababli mehnatdan zerikmaslik hamda mehnatga nisbatan to'g'ri fikrlash malakasi shakillanadi.

Mehnat tushunchasini "**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI**" fanlari bilan integratsiyalaydigan bo'lsak ona tili va o'qish savodxonligi darslarida biz eng ko'p yozma shakldagi mashg'ulotlar va vazifalarni bajarish bilan shug'ullanamiz. Bunday holatlarda o'quvchilarga mehnat tushunchasini tushuntirish va anglatish uchun hamda fanni mehnat ta'limi bilan integratsiyalash uchun yozma shakldagi diktantlar, matnlar, ijodiy bayonlar, topishmoqlar va maqollardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Na'muna sifatida ko'rsatiswhimiz mumkinki mehnatni topishmoqlar bilan integratsiyalaganimizda javobi mehnatga oid bo'lgan topishmoqlarni berishimiz orqali ham bolani mehnatga qiziqtirishimiz angra oson hisoblanadi. Sababi bolalar uchun eng qiziqarli xalq ijodi na'munalaridan biri bu topishmoqlardir. Masalan:

1. Yer tagida quyruq boradi. (omoch)

2. Urdim gup etadi,

Yer tagiga kirib ketadi. (ketmon)

3. Bir qushim bor ajoyib,

Don cho'qiydi yeyolmaydi,

Qanot qoqadi ucholmaydi. (juvoz)

4. U nimadur, quv yog'ochdan og'zi bor,

U nimadur, o'rtasida mag'zi bor,

U nimadur, yelkasida og'zi bor,

U nimadur, suv ostida qimirlar. (tegirmon) kabilarni na'muna qilishimiz mumkin.



Maqollarga na'munalar:

1. Ayb yilda emas, mehnatda.

2. Aravani ot tortar,

Ko'lankasin it.

3. Ari zahrin chekmagan,

Bol qadrini bilmaydi.

4. Axmoqning kulgusi ko'p,

Dangasaning uyqusi.

Kabi maqollar ham bolalarda mehnatni ulug'lash hissini sgakillantirishga hizmat qiladi. Yuqoridagi maqol va topishmoqlar orqali mehnat qilgan xor bo'lmasligini va mehnatda bo'lgan inson kam bo'lmasligini ham tushunib yetishadilar. Bundan tashqari ijodiy bayon, matn va insholarni yozganda ham mavzu mehnat haqida bo'lsa o'quvchilarda mehnatga nisbatan qarashlari o'zgaradi. Yanayam dars jarayonini qiziqarliroq o'tishi uchun bolalarga mavzusi yo'q mehnatga oid matnlar berib ularni o'qib chiqishlari va matnga oid sarlavha topishlari vazifa qilib berilsa ham bolalar matnni qiziqib o'qishadilar hamda mehnatga oid sarlavha topish uchun mehnat haqidagi terminlarni topishga va ularni o'rganishga majbur bo'lishadilar.

Endilikda mehat tushunchasini fanlardan tashqari yananyam qiziqarli bo'lishi uchun dam olish daqiqalari bilan ham integratsiyalashimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dam olish daqiqasidan asosan mashqlar va she'rlardan foydalalanamiz, shular qatorida she'rimiz mehnatga oid bo'lsa ham bolalar u she'ni darrov yod olishadi, sababi dam olish daqiqasi ayniqsa kichik ssinf o'quvchilarining eng sevimli mashg'luloti hisoblanadi. Bunday she'rlarga:

1. Mehnat qilib charchadi,

Jajjigina qo'limiz,

Ammo mehnat yoritar,

Har vaqt bizning yo'limiz.

Kabi she'rlardan dam olish daqiqalarida foydalansa bo'ladi.



Xulosa qilib aytish joizki; mehnat qilish har bir insonni ulug'lasa ulug'laydiki hech qachon hor qilmaydi. Shunday ekan kelajak avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va mehnatsevar qilib kamol topdirish uchun ham mehnat qilaylik hurmatli ustozlar!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Robelen, E. (2011, December 7). STEAM: Experts make case for adding arts to STEM. Education Week. [1;35];
- 2.Boltaboyeva U. "Nutq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari: mammo va yechimlar" // Oriental Art and Culture.-2020.-[No I(2).]
- 3.Yo'ldosheva S. "Kitob mutolaasini shakillantirishda topishmoqlarning o'rni" // Oriental Art and Culture.-2019.-[No IV (1)].
4. Mamatov J." Barkamol avlodni tarbiyalashda maqollarning ahamiyati" //International Engineering Journal For Research &Development.-2020.-T.5.-[No Conference.-4-4.]